



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Sanaqulova Matluba Eraliyevna**

*Samarqabd viloyati Jomboy tuman  
XTBga qarashli 56-IDUM maktab psixologi*

### FARZANDLARIMIZGA O'Z KASBIMIZ TO'G'RISIDA

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ota – onalar farzandlariga o'z kasblarining sirlarini o'rgatishlari va ularni kasb tanlashga yordam berishlari haqida so'z yuritildi.

**Kalit sozlar:** ota – onalar, o'quvchilar, bitiruvchilar, farzand,

Maktab o'quvchilarining hammasi ham adabiyotdan o'qilishi kerak bo'lgan dasturni mutolaa qilishga qodir emas, biz esa ular butun umri davomida bajaradigan kasbni tanlashlarini istaymiz. Ota-onalar bitiruvchilarga qayerga o'qishga borishni aytishlari va farzandining kelajagiga putur yetkazmasliklari kerak.

Ota-onaning farzandga tanlovni amalga oshirishda yordam berishga oshiqishi normal holat. Masala buni qanday qilib amalga oshirishdan iborat:

Bolada mustaqillikni tarbiyalash

Afsuski, bu bilan bitiruvga bir-ikki yil qolganida shug'ullanish biroz kech. Mustaqil bolani tug'ilganidan boshlab tarbiyalash kerak. Biroq buni boshlashning kechi yo'q. Kasbga yo'naltirishning asosiy qoidasi oddiy:

Bola kasbni o'zi tanlashi lozim.

Har bir odam o'ziga nima kerakligini o'zi yaxshi biladi. Aynan shu yo'l orqali nimadir ko'nglidagidek bo'lmasa, ota-onasini ayblamaydi yoki o'z imkoniyatini qo'ldan boy berilgan, deb o'ylamaydi.

2. Qaysi kasblarga talab borligini o'rganing

Faqat "obro'li" emas, haqiqatan ham talab katta bo'lganlarini bilish kerak. Buni tushunish uchun reytinglarni o'qish shart emas. Ish topishda yordam beradigan



saytlarni ochib, vakansiyalarni diqqat bilan kuzatish lozim.

Vakansiyalarni ko'zdan kechirish kasbning mashhurligini, kutilayotgan maoshni va ishlash istagida bo'lganlarga qo'yiladigan talablarni baholashda yordam beradi. Balki orzudagi yo'nalishda o'qish uchun oliy ma'lumotning o'zi kamlik qilar: parallel ravishda xorijiy tilni o'rganish va qandaydir kurslarga borish kerak bo'ladi.

### 3. Kasbni ichidan ko'rsating

Kattalar turli kasb egalari bo'lgan ko'plab tanishlarga ega. Do'stlaringizdan bolangizga u ishda nima bilan shug'ullanishini gapirib berishini so'rang. Kundalik odatiy ishlar haqida eshitish muhim. Masalan, xat yozishga to'g'ri kelishi, real sharoitlarda qanday qilib chizmalar chizilishi, tongda roppa-rosa sakkizda ishga kelish kerakligi, hisobotlarni to'ldirish va buxgalteriyada choy ichish kabi.

Ko'pgina korxonalarda ochiq eshiklar kunlari o'tkaziladi. Bunday tadbirlarda to'g'ri savol berish kerak: yuqori ko'rsatkich va oliy maqsad haqida emas, kundalik yumushlar, ish joylarining tashkil etilishi kabi.

Ko'plab kasblar to'g'risida chalkash tasavvurlar mavjud. Bir necha yilni bekorga sarflash, kutilgan voqea va reallik o'rtasidagi mojaro o'rniga yaxshisi bu kasb bilan yaqindan tanishgan ma'qul.

Salomatlikning mehnat shartlariga to'g'ri kelishi ham muhim. Bola eplay oladimi, yo'qmi - buni faqat real sharoitda tushunish, hech bo'lmaganda kasb vakili bilan ochiq suhbat davomida aniqlash kerak.

### 4. Boshqa shahar va mamlakatlarda o'qish imkoniyatlarini toping

Ko'pincha qayerda va kim bo'lib ishlash mumkinligi, mamlakatning boshqa qismi u yerda tursin, qo'shni shaharlardagi oliy ta'lim muassasalarida qanday mutaxassisliklar mavjudligini bilmaymiz.

Albatta, bolaning boshqa shaharga ko'chib ketishi – bog'da aylanib yurishdek qiziq holat emas. Talabani masofadan turib qo'llab-quvvatlash – mushkul. Biroq bu shunga arziydi, gap butun umrlik kasb haqida ketyapti.

### 5. Kasbga yo'naltirish testlari to'g'risida unuting

Ayniqsa internetda tarqalganlarini. Ular juda odatiy savollarga asoslangan va ko'plab kasblarni inobatga olmaydi.

Kelajakni test bilan jiddiy shug'ullanish orqali aniqlash – nima bilan shug'ullanish haqida umuman tasavvurga ega bo'lmagandagi chorasizlik.

### 6. Maktabdagi sevimli fan va kasbni adashtirmang

Standart mantiq: matematikadan yaxshi o'qiydi – "kompyuterchilik"ka o'qishga borish kerak, adabiyotdan bilimi a'lo – filologlik, hech narsaga qiziqmaydi – menejyer bo'la qolsin.

Bilimdan kelib chiqib ishni tanlash o'rniga bilimni maqsadga qarab oshirib borish zarur.

Sevimli fanni emas, bola mehnat qilib, yaxshi haq to'lanadigan kasbni tanlash kerak. Balki bolaga o'qituvchi, chiroyli xona va ko'rgazmali materiallar yo'qar, kasbda esa bularning hech biri bo'lmaydi.

### 7. Oliy ta'lim muassasasiga zudlik bilan topshirishga majbur qilmang

Agar bola hali kim bo'lishni aniqlamagan bo'lsa, unga buni o'ylab ko'rishga vaqt va imkoniyat bering. Maktabdan keyin haqiqiy hayot bilan tanishish, vaqtni



kurslar va o'zini izlashga sarflash, balki ishlab ko'rishga hech narsa xalaqit qilmaydi. Agar maktabdan keyin o'qimasdan yurishini tasavvur eta olmasangiz, kollejga yuborib ko'ring. U yerda imtihonlar soddaroq, tayyor kasbni tezroq egallash mumkin.

Oliy ma'lumotga mukkasidan ketish ko'p hollarda yaxshilikka olib kelmaydi. Ko'pincha diplom – ortida bir gramm ham bilim va ko'nikma bo'lmagan oddiy qog'ozga aylanadi. Lekin ketkazilgan bir necha yil va sarf etilgan pullar bor.

#### 8. Ta'limni tugatishga majburlash

18 yoshdan 23 yoshgacha odam tez katta bo'ladi, bu shaxs sifatida shakllanish yoshi. Ba'zida ko'zlar ochilib, talaba o'z ishi bilan shug'ullanmayotganini angelaydi: qiziqroq mutaxassislikni topadi, o'z oldidagi maqsadlarni tushunadi. Qoidaga ko'ra, bu kechagi maktab o'quvchisilikiga ko'ra ancha o'ylab amalga oshirilgan tanlov. Bunday burilish “boshladingmi - tugat” natijasida qo'lga kiritilgan diplomga qaraganda ko'proq foyda keltiradi.

Ma'lumot to'g'risidagi diplom va bir necha yil o'qish – bu butun umrlik kelishuv emas. Istalgan vaqtda barini o'zgartirish mumkin. Buni kasbni to'g'ri yoki noto'g'ri tanlaganiga ishonchi komil bo'lmagan farzandingizga aytishni unutmang.

Shu o'rinda bir qancha buyuk shaxslarni qanday qilib kasblarini egallaganliklari bilan tanishamiz:

“Bobom xorijiy tillar bilan bog'liq yo'nalishni tanlashni maslahat berdi. Sinab ko'rdim, qiziqdim, shuning uchun uning maslahatiga quloq solish oson bo'ldi. Talab ikkinchi o'ringa o'tdi, chunki haqiqatan ham qiziq edi. Endi esa men o'zim sevgan IT-sohadaman. Bobom yomon narsani tavsiya qilmaydi!”

#### **Angelina, tarjimon**

“Men aktyorlikka bormoqchi edim. Biroq otam barcha aktyorlar tuman teatrida qolishini, kam maosh olishini aytdilar. Muhandis – bu boshqa gap. Men gapga kiradigan qiz edim va radio fakultetiga o'qishga kirdim. Politexnika institutida qiziq edi va 6 yil men talabalik bahorida ishtirok etdim. Magistr bo'lishimga qaramay, muhandis sifatida ishlashda esa boshimda bilim nol. Shuning uchun butun umr meni o'z-o'zini ro'yobga chiqara olmaganlik hissi, bari o'zgacha bo'lishi mumkin edi, degan fikr ta'qib etadi. Otamning haqligini, aktyorlik og'ir kasb ekanini angelayman. Ota-onamni ayblamayman. Orzuimdagi narsani amalga oshirolmaganim uchun o'zimni aybdor hisoblayman”.

#### **Mariya, muharrir**

“Ota-onam – o'qituvchilar. Pedagogikaga borishni maslahat berishmadi, men ham bormadim.”

#### **Lida, reklama bo'yicha mutaxassis**

“Tanlash vaqti kelganida 15 yoshda edim. Shahrimizda orzuimdagi mutaxassislik bo'yicha o'qish imkoni yo'q edi, maktabning yo'nalishi esa boshqacha bo'lgan. O'qishga kirish uchun boshqa maktabga o'tish, maxsus dastur bo'yicha shug'ullanish, boshqa shaharga bir necha yuz kilometr yo'l bosib borish va hujjatlarni topshirish kerak edi. Men bunday qilolmadim, ota-onam esa tashvishlana boshladilar. Natijada, o'zimizda bor bo'lgan kasbni tanladim. Yaqinda 30 yosh bo'laman, hali ham afsusdaman”.

**Nastya, kopirayter**

“Onam texnika kollejiga o‘qishga kirishga majburladilar, bundan xursand emasdim. Shuning uchun bor kuchim bilan meni o‘qishdan haydashlariga harakat qilardim. Bu ish bermadi. Kollejdani keyin o‘zim universitet va mutaxassislikni tanladim. Hozir afsuslanmayman. Kollejdani keyin meni yaxshi bir korxonaga amaliyotga yuborishdi. 18 yoshimda normal lavozim va maoshga ega edim”.

**Mariya, menejyer**

“To‘qqizinchi sinfdan keyin sinf rahbari onamga meni texnikumga yuborishni tavsiya qildi. Ota-onam tanlab o‘tirmay, meni qurilish yo‘nalishiga yuborishdi. Chunki onamning barcha hamkasblari o‘sha yerni tugatishgan ekan. Menga muhimi diplomlik bo‘lishim ekanini aytishdi. Itoatkorlik bilan rozi bo‘ldim. To‘rt yil qiynaldim. Undan keyin boshqa yo‘nalishda oliy ma‘lumotga ega bo‘lish haqida mustaqil ravishda qaror qabul qildim. Ota onam “Nahotki, to‘rt yil qiynalading” deyishgan bo‘lsa-da, rozilik berishdi”.

**Anton, dizayner**

Xulosa qilib aytganda, inson hayotda yashar ekan albatta qandaydir kasb bilan mashg‘ul bo‘ladi. Agar o‘sha kasbi o‘zi uchun sevimli bo‘lsa, u kishi uchun hayot go‘zaldir!!!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jumaboyeva M. Umumiy o‘rta ta‘limda kasbga yo‘naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo‘jaligi instituti, 2014. — 21 b
2. <http://www.hozir.org/oquvchilarni-kasb-hunarga-yonaltirish-va-psixologik--pedagogik-v2.html?page=2>
3. <https://kun.uz/uz/news/2018/07/13/>